

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦЯЛАР ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК УНИВЕРСИТЕТИ  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙ  
НОМИДАГИ ШАРҚШУНОСЛИК ИНСТИТУТИ**

**Ўзбекистон қаҳрамони Сўйима Фаниева хотирасига бағишланган анъанавий  
“Навоийшунослар” В Республика илмий-амалий анжуманининг  
АҲБОРОТ ХАТИ**

Ўзбек навоийшунослигининг бетакрор тадқиқотчиси Сўйима Фаниеванинг серқирра илмий фаолияти этишиб келаётган авлодга ўрнак бўлгудек. У бир томондан Навоий асарлари матнини илмий муомалага киритувчи ва уларнинг нашрида иштирок этувчи забардаст матншунос, бошқа томондан турли нашрларда Навоий асарларида ёд этилган китоблар ва шахслар тўғрисидаги маълумотларни кенг шархловчи манбашунос, яна бир томондан Навоий асарлари кўп жилдлигига шоир асарларининг рус тилидаги таржимони сифатида гавдаланади.

Профессор Сўйима Фаниева узок йиллар давомида педагогик фаолият билан шугулланиб, юзлаб талаба ёшлар у кишининг мумтоз адабиётимиз тарихи ва Навоийнинг ижодиётига бағишланган мароқли маърузаларини тинглаб соҳа мутахассисларига айланган. Олима адабиётшунослик, матншунослик ва таржимачилик соҳасида яратган 80 га яқин китоб ва рисолалар, 900 дан ортиқ илмий мақолалар муаллифи ҳисобланади.

Ҳозирда жамиятда кечётган туб ўзгаришлар, маънавий тикланишлар даврида катта авлод олимлар ишини давом эттириш, илмда ворисийлик қадриятларини таъминлаш муҳим аҳамият касб этади. Айни масалалар эътиборга олинниб, Тошкент давлат шарқшунослик университети ва ЎзРФА Шарқшунослик институти ҳамкорлигига Ўзбекистон қаҳрамони, Беруний номидаги Давлат мукофоти совриндори, профессор Сўйима Фаниева хотирасига бағишланган анъанавий “Навоийшунослар” анжуманини ўтказиш режалаштирилган.

**Навбатдаги илмий-амалий анжуман 2024 йил 10 май куни ўтказилади.**

Алишер Навоий ижодий меросига, Сўйима Фанива ва унга замондош олимларнинг илмий асарларига бугуннинг ёшлари кўзи билан қараш янги илмий мулоҳазалар, ёндашувлар асосида таҳлил ва тарғиб этиши анжуманинг бош вазифасидир.

Ушбу анжуман ёшларнинг, ёш шарқшуносларнинг, илму толибларнинг баҳсу мунозара майдони сифатида ўзбек навоийшунослигининг ёш авлоди қайси илмий йўлдан кетади, улар Навоий асарларини қайси мезонлар асосида ўрганади, уларга Навоий асарларининг қай жиҳатлари муҳим сингари сўроқ ва жумбокларга ечим топишга ёрдам беради.

**Илмий-амалий анжуманда қўйидаги масалалар мухоммадага тортилади:**

- Алишер Навоий ижодий мероси ёшлар талқинида;
- Алишер Навоий асарларининг аҳамияти;
- Алишер Навоий ижоди ва унинг интернет тармоққа жойлаштириш масалалари;
- Навоий асарлари поэтикаси;
- Навоий асарларининг матншунослик ва манбашунослик йўналишларда ўрганилиши;
- Навоий асарларининг тил ва услуг хусусиятлари;
- Навоий анъаналарининг Шарқ адабиётida давом этиши;
- Сўйима Фаниева – навоийшунос.
- XX аср олимларининг навоийшунослик фанига қўшган ҳиссаси.

Анжуман материалларини тўплам ҳолида чоп эттириш режалаштирилган. Мақолалардаги илмий фактларнинг тўғрилиги учун муаллиф маъсулдир. Анжуман талабларига тўғри келмаган мақолалар тўпламга киритилмайди.

Мақола матни таҳрир қилинган ҳолда А-4 ўлчовида, юқоридан ва пастдан 2 см, чапдан 3 см, ўнгдан 1.5 см жой қолдириб расмийлаштирилади. Мақоланинг сарлавҳасидан кейин бир қатор ташлаб, кейинги қатордан муаллифнинг фамилияси, исми ва отасининг исми ёзилади. Янги қатордан эса мақола муаллифи ўқиётган ёки ишлайдиган ташкилот номи, лавозими ва муаллифнинг электрон манзили кўрсатилади. Сўнгра 1 интервал қолдирилиб, янги қатордан 1,5 интервалли қаторларда мақола матни 5-8 бетгacha ҳажмда ёзилади. Матннинг электрон нусхаси MS Word дастурида, Times New Roman шрифтидан, 14 кегел катталигига бўлиши лозим. Мазкур талабларга жавоб бермаган мақолалар нашрга тавсия этилмайди.

Анжуманда қатнашиш учун мақолани электрон кўринишда **2024 йил 25 апрелга қадар** ЎзРФА Шарқшунослик институти катта илмий ходими, Тошкент давлат шарқшунослик университети Шарқ филологияси ва таржимашунослик факультети, Мумтоз филология ва адабий манбашунослик кафедраси доценти (PhD) Ойсара Мадалиевага фақат ([yoshnavoiyshunos@gmail.com](mailto:yoshnavoiyshunos@gmail.com)) почта манзили орқали юбориш сўралади.

**Ташкилий қўмита:** Тошкент шаҳри, Амир Темур кўчаси, 20-үй. Тошкент давлат шарқшунослик университети Шарқ филологияси ва таржимашунослик факультети Мумтоз филология ва адабий манбашунослик кафедраси 610-хона; Тошкент шаҳри, Мирзо Улугбек тумани, Мирзо Улугбек кўчаси 79-үй. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти Шарқ мумтоз адабиёт бўлими, 203-хона.

Электрон почта манзили: [yoshnavoiyshunos@gmail.com](mailto:yoshnavoiyshunos@gmail.com) Тел.: (91) 506 29 36 (Ойсара Мадалиева).

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI**  
**SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**O'zbekiston qahramoni Suyima G'aniyeva xotirasiga bag'ishlangan an'anavy  
"Navoiyshunoslar" V Respublika ilmiy-amaliy anjumanining  
AXBOROT XATI**

O'zbek navoiyshunosligining betakror tadqiqotchisi Suyima G'aniyevaning serqirra ilmiy faoliyati yetishib kelayotgan avlodga o'rak bo'lgudek. U bir tomondan Navoiy asarlarini matnini ilmiy muomalaga kirituvchi va ularning nashrida ishtirok etuvchi zabardast matnshunos, boshqa tomondan turli nashrlarda Navoiy asarlarida yod etilgan kitoblar va shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni keng sharhlovchi manbashunos, yana bir tomondan Navoiy asarlar ko'pjildligida shoir asarlarining rus tilidagi tarjimoni sifatida gavdalananadi.

Professor Suyima G'aniyeva uzoq yillar davomida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanib, yuzlab talaba yoshlar u kishining mumtoz adabiyotimiz tarixi va Navoiyning ijodiyotiga bag'ishlangan maroqli ma'ruzalarini tinglab soha mutaxassislariga aylangan. Olima adabiyotshunoslik, matnshunoslik va tarjimachilik sohasida yaratgan 80 ga yaqin kitob va risolalar, 900 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi.

Hozirda jamiyatda kechayotgan tub o'zgarishlar, ma'navyi tiklanishlar davrida katta avlod olimlar ishini davom ettirish, ilmda vorisiylik qadriyatlarini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni masalalar e'tiborga olinib, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va O'zR FA Sharqshunoslik instituti hamkorligida O'zbekiston qahramoni, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, professor Suyima G'aniyeva xotirasiga bag'ishlangan **an'anavy "Navoiyshunoslar"** anjumanini o'tkazish rejalashtirilgan.

**Navbatdagi ilmiy-amaliy anjuman 2024-yil 10-may kuni o'tkaziladi.**

Alisher Navoiy ijodiy merosiga, Suyima G'aniva va unga zamondosh olimlarning ilmiy asarlariga bugunning yoshlari ko'zi bilan qarash yangi ilmiy mulohazalar, yondashuvlar asosida tahlil va targ'ib etish anjumanning bosh vazifasidir.

Ushbu anjuman yoshlarning, yosh sharqshunoslarning, ilmu toliblarning bahsu munozara maydoni sifatida o'zbek navoiyshunosligining yosh avlod qaysi ilmiy yo'ldan ketadi, ular Navoiy asarlarini qaysi mezonlar asosida o'rganadi, ularga Navoiy asarlarining qay jihatlari muhim singari so'roq va jumboqlarga yechim topishga yordam beradi.

**Ilmiy-amaliy anjumanda quyidagi masalalar muhokamaga tortiladi:**

- Alisher Navoiy ijodiy merosi yoshlar talqinida;
- Alisher Navoiy asarlarining ahamiyati;
- Alisher Navoiy ijodi va uning internet tarmoqqa joylashtirish masalalari;
- Navoiy asarlari poetikasi;
- Navoiy asarlarining matnshunoslik va manbashunoslik yo'nalishlarida o'rganilishi;
- Navoiy asarlarining til va uslub xususiyatlari;
- Navoiy an'analarining Sharq adabiyotida davom etishi;
- Suyima G'aniyeva – navoiyshunos.
- XX asr olimlarining navoiyshunoslik faniga qo'shgan hissasi.

Anjuman materiallarini to'plam holida chop ettirish rejalashtirilgan. Maqolalardagi ilmiy faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir. Anjuman talablariga to'g'ri kelmagan maqolalar to'plamga kiritilmaydi.

Maqola matni tahrir qilingan holda A-4 o'chovida, yuqorida va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1.5 sm joy qoldirib rasmiylashtiriladi. Maqolaning sarlavhasidan keyin bir qator tashlab, keyingi qatorдан muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi yoziladi. Yangi qatorдан esa maqola muallifi o'qiyotgan yoki ishlaydigan tashkilot nomi, lavozimi va muallifning elektron manzili ko'rsatiladi. So'ngra 1 interval qoldirilib, yangi qatorдан 1,5 intervalli qatorlarda maqola matni 5-8 betgacha hajmda yoziladi. Matnning elektron nusxasi MS Word dasturida, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattaligida bo'lishi lozim. Mazkur talablarga javob bermagan maqolalar nashrga tavsiya etilmaydi.

Anjumanda qatnashish uchun maqolani elektron ko'rinishda **2024-yil 25-aprelga qadar** O'zR FA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasи dotsenti, PhD Oysara Madaliyevaga **faqat (yoshnavoiyshunos@gmail.com) pochta manzili orqali** yuborish so'raladi.

**Tashkiliy qo'mita:** Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti Mumtoz filolgiya va adabiy manbashunoslik kafedrasи 610-xona; Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi 79-uy. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Sharq mumtoz adabiyoti bo'limi, 203-xona.

Elektron pochta manzili: **yoshnavoiyshunos@gmail.com** Tel.: (91) 506 29 36 (Oysara Madaliyeva)